

AQSH tajribasi O'zbekistonda

✘ AQShning Qishloq xo'jaligi departamenti tomonidan 2018 yilning 10-22 sentyabr kunlarida Kaliforniya universiteti (Devis)da tashkil etilgan "Irrigatsiya va suv tejamkor texnologiyalar" mavzusida seminar-treningda ishtirok etgan Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor T.Sultanov o'zining xizmat safari yakunlari bo'yicha bugun rektorat a'zolariga taqdimot o'tkazdi.

Taqdimotda Cochran dasturi, Kaliforniya Devis universitetining faoliyati va uning tajriba uchastkalari, Kaliforniya shtatida suv resurslarini boshqarish, shtatda qishloq xo'jaligi maxsulotlarini yetishtirish, suv tejavchi texnologiyalar, tuproq ximoyasi, atrof - muxit ximoyasi, suv tozalash inshootlari, nasos stansiyalari, Sacramento daryosi deltasi xamda yer osti suvlaridan foydalanish va ularni boshqarishga doir almashinilgan tajribalar taqdim etildi.

Shuningdek AQShda xizmat safarida bo'lib TIQXMMI bilan AQShning Kaliforniya universiteti (Devis) o'rtasida ta'lim, ilm-fan, ilmiy va amaliy konferensiyalar, talaba va professor o'qituvchilar o'rtasida almashinuv, shuningdek, xalqaro hamkorlik ishlarini kelgusida istiqbolli rejalar asosida amalga oshirish va yo'lga qo'yish maqsadida imzolangan hamkorlik memorandumini bo'yicha institutimiz fakultetlarini AQSh universiteti bilan o'zaro xamkorlikda ishlash uchun reja tuzish masalasi ko'rib chiqildi.

Taqdimotdan kelib chiqib AQShdagi "Irrigatsiya va suv tejamkor texnologiyalar" mavzusidagi seminar-trening natijalari bo'yicha prorektor T.Sultanovning navbatdagi taqdimoti **5.10.2018 y. kuni GM fakulteti professor-o'qituvchilari, doktorantlar va talaba-magistrantlarilar uchun soat 13.00da 4-ma'ruzalar zalida** tashkil etiladi.

Taqdimotdan ko'zlangan maqsad, Kaliforniya Devis universiteti bilan institut kafedralarining aloqalarini o'rnatishga qaratilgan. Barcha qiziquvchilar ushbu taqdimotga taklif etiladi.

Institut xalqaro aloqalar bo'limi rahbari Ilhomjon Abdurahmonov axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov